

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 72 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUYUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЩЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSIYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	



BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI

Ruzibayeva Nargiza Xakimovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Innovatsiyalar va investitsiyalar” kafedrası dotsenti, PhD
ORCID: 0000-0003-4727-5450

Annotatsiya. Ushbu maqolada barqaror investitsiyalarning asosiy tamoyillari tizimli ravishda yoritilgan. Tadqiqotda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv jihatlarini qamrab oluvchi ESG mezonlarining investitsiya qarorlaridagi o'rnini va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, so'nggi yillarda barqaror rivojlanishning konseptual asoslari Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan “Barqaror rivojlanish kun tartibi” doirasida Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan moliyalashtirish mexanizmlari va yangi yondashuvlar bilan boyib borayotgani asoslab berilgan. Barqaror investitsiyalar Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi global tashabbusning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularning mohiyati kelajak avlodlar uchun sayyoramizning tabiiy va energetik salohiyatini asrash, shuningdek, ijtimoiy va madaniy tizimlarning barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, barqaror investitsiyalar, moliyaviy bozorlar, ESG investitsiyalari, ESG omillari, institutsional investorlar, yashil obligatsiyalar, barqaror obligatsiyalar, investitsiya fondlari.

Abstract. This article systematically outlines the core principles of sustainable investment. It analyzes ESG criteria encompassing environmental, social, and corporate governance dimensions and highlights their role in investment decision-making. The study also demonstrates that, in recent years, the conceptual framework of sustainable development has been consistently enriched with new approaches and financing instruments aimed at achieving the United Nations' Sustainable Development Goals as set out in the “Agenda for Sustainable Development.” Sustainable investment represents a key component of the global initiative to advance the Sustainable Development Goals, with the overarching objective of preserving the planet's natural and energy potential for future generations while strengthening the resilience of social and cultural systems.

Keywords: sustainable development, sustainable investment, financial markets, ESG investment, ESG factors, institutional investors, green bonds, sustainable bonds, investment funds.

Аннотация. В статье системно изложены основные принципы устойчивых инвестиций. Проанализированы критерии ESG, учитывающие экологические, социальные и аспекты корпоративного управления, а также их роль в формировании инвестиционных решений. Показано, что в последние годы концептуальные основы устойчивого развития последовательно дополняются новыми подходами и инструментами финансирования деятельности, направленной на достижение Целей устойчивого развития, закреплённых ООН в «Повестке дня в области устойчивого развития». Устойчивые инвестиции выступают важной составной частью глобальной инициативы по реализации Целей устойчивого развития, сущность которой заключается в сохранении природного и энергетического потенциала планеты для будущих поколений и обеспечении устойчивости социальных и культурных систем.

Ключевые слова: устойчивое развитие, устойчивые инвестиции, финансовые рынки, ESG-инвестиции, факторы ESG, институциональные инвесторы, зелёные облигации, устойчивые облигации, инвестиционные фонды.

KIRISH

Ijtimoiy iqtisodiyot konsepsiyasi dunyo miqyosida o'nlab yillar davomida shakllanib va rivojlanib kelmoqda. So'nggi yillarda moliya sohasida ham ijtimoiy, ham ekologik samaradorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan alohida bozor segmentining shakllanishi kuzatilmoqda. Shu nuqtai nazardan, barqaror investitsiyalar moliya sanoatining an'anaviy qiymat zanjiri va ekotizimini takomillashtirib, moliyaning asosiy tamoyili — kapitaldan foydalanish orqali uzoq muddatli qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Barqaror moliya modeli doirasida taklif etilayotgan innovatsiyalar “umumiy qiymat” va “aralash qiymat takliflari” kabi konseptual yondashuvlarni rivojlantirdi. Ushbu yondashuvlar ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) omillarini moliyaviy qarorlar qabul qilish va tahlil jarayonlariga tizimli ravishda integratsiya etishni nazarda tutadi. Natijada, moliyaviy instrumentlar nafaqat iqtisodiy daromad olishga, balki ijtimoiy va ekologik natijalarni yaxshilashga ham xizmat qiluvchi muhim innovatsion vositaga aylanmoqda. Mazkur barqaror investitsiya strategiyalari barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish bilan birga, kelajak avlodlar manfaatlarini saqlab qolish tamoyiliga asoslanadi.

Bundan tashqari, barqaror rivojlanish yondashuvi kapital oqimlarini ijtimoiy va ekologik natijalarga erishishga yo‘naltirish imkonini kengaytirdi. Xalqaro miqyosda qabul qilingan tashabbuslar va kelishuvlar barqaror rivojlanish g‘oyalarining davlat siyosati darajasida mustahkam o‘rin egallaganini ko‘rsatadi. Ushbu kelishuvlar moliya sanoatini iqtisodiyotdagi vositachilik ro‘lidan samarali foydalanish orqali barqaror rivojlanishni moliyalashtirishdagi mavjud bo‘shliqlarni qisqartirishga undaydi.

Mazkur tashabbuslar doirasida moliya sektoriga iqlim o‘zgarishi, qashshoqlikni qisqartirish va ijtimoiy tenglikni mustahkamlash kabi dolzarb muammolarni hal etishda davlat sektori, nodavlat tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali ijtimoiy va ekologik transformatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash vazifasi yuklanmoqda. Ushbu konsepsiyalar va yondashuvlar ijtimoiy mas‘uliyatli investitsiyalar (SRI), ta‘sir investitsiyalari hamda ESG investitsiyalari kabi investitsiyalarni boshqarish strategiyalari orqali amaliyotga joriy etilib, kapital bozorlarida tobora kengroq qo‘llanilmoqda.

Shu bilan birga, ushbu investitsiya strategiyalari asosan rivojlangan bozorlarda faol qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, rivojlanayotgan va chegaradosh bozorlarda ham ularni joriy etish uchun institutsional muhitni takomillashtirish, shaffoflikni oshirish va tartibga solish mexanizmlarini mustahkamlash orqali sezilarli imkoniyatlar mavjud. Bu esa barqaror investitsiyalarning global miqyosda yanada keng tarqalishi va ularning iqtisodiy hamda ijtimoiy samaradorligini oshirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror investitsiya konsepsiyasining mohiyati shundan iboratki, investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida aktivlarning narxi va rentabelligi kabi an‘anaviy moliyaviy mezonlar bilan bir qatorda, ularning barqarorlik parametrlariga muvofiqligi, ya‘ni barqaror rivojlanish maqsadlariga mosligi ham hisobga olinadi. Shu asosda investitsiya qarorlarini baholashda uchta asosiy omillar guruhi tahlil qilinadi.

Atrof-muhit (E) omillari doirasida investitsiya obyektiga aylangan kompaniya faoliyati ekologik ko‘rsatkichlar nuqtai nazaridan baholanadi. Jumladan, suv, tuproq va havo ifloslanishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish (uglerod izini qisqartirish), shuningdek, chiqindilarni mas‘uliyatli boshqarish siyosati tahlil qilinadi.

Ijtimoiy (S) omillar xodimlarning mehnat sharoitlari, sog‘liqni saqlash va mehnat xavfsizligi, teng huquqlar va imkoniyatlar ta‘minlanishi, shuningdek, kompaniyaning mahalliy hamjamiyatlar rivojiga qo‘shayotgan hissasini baholashni o‘z ichiga oladi.

Boshqaruv (G) omillari kompaniyada korporativ boshqaruvning sifati, biznes jarayonlarining shaffofligi, axloqiy me‘yorlarga rioya etilishi, ish haqi siyosati hamda korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarini qamrab oladi.

Investitsiyalar barqaror rivojlanishga o‘tish jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi hamda uning maqsad va vazifalariga erishishni jadallashtiruvchi muhim moliyaviy instrument hisoblanadi. So‘nggi yillarda moliyaviy bo‘lmagan omillarni ham hisobga oluvchi yangi investitsiya yondashuvlari shakllanib, amaliyotga izchil joriy etilmoqda.

Barqaror investitsiyalar investitsiya qarorlarini qabul qilishda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) omillarini kompleks hisobga olishga asoslangan yondashuv sifatida tavsiflanadi. Globallashtiruvchi jarayonlarining jadallashuvi sharoitida investorlarning e‘tibori nafaqat moliyaviy daromadlarga, balki investitsiya obyektlarining ijtimoiy, ekologik va institutsional mezonlarga muvofiqligiga ham tobora kuchayib bormoqda. Ushbu holat moliyaviy va ijtimoiy manfaatlar o‘rtasida muvozanatni ta‘minlash zarurati bilan izohlanadi hamda investitsiya samaradorligini baholashda ESG mezonlaridan foydalanishning kengayishiga olib keldi [1].

Hozirgi bosqichda ESG tamoyillariga asoslangan mas‘uliyatli investitsiyalarni mazmunan talqin qilishda ikki asosiy yondashuv shakllangan. Birinchi yondashuv doirasida barqaror, mas‘uliyatli va ta‘sir investitsiyalari (Sustainable, Responsible, Impact) yagona tematik makonda birlashtiriladi, ayrim holatlarda esa etik investitsiyalar (Ethical Investment) va qiymatga asoslangan investitsiyalar (Value-Based Investment) ham ushbu guruhga kiritiladi.

Ikkinchi yondashuv har bir investitsiya turining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga va mas‘uliyatli investitsiyalar tizimini yanada muvozanatli shakllantirishga imkon beradi. Ilmiy tadqiqotlar ushbu tushunchalarni aniqlashda yagona yondashuv mavjud emasligini ko‘rsatadi [2]. Mas‘uliyatli moliyaviy xatti-harakatlar natijasida



barqaror moliya konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan mas'uliyatli investitsiyalarda qo'shimcha omil — "barqarorlik" tushunchasi shakllanganligi aniqlanadi [3].

"Barqaror investitsiyalar" sohasidagi zamonaviy ilmiy izlanishlar ushbu atamani yanada aniqlashtirishga xizmat qilmoqda. Xususan, Bill Baue barqaror investitsiyalarni barqaror rivojlanish g'oyalarini o'zida mujassam etgan, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini investitsiya qarorlariga integratsiya qiluvchi eng ilg'or investitsiya sxemalari sifatida ta'riflaydi [4].

2013-yilda e'lon qilingan "Barqaror investitsiyalar" hisobotida UBS Financial Services Inc. mualliflar jamoasi barqaror investitsiyalarning asosiy moliyaviy oqimga aylanib borayotganini ta'kidlab, ushbu yondashuv investorlar uchun raqobatbardosh daromad olish bilan bir qatorda, jamiyat va atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatini yaratishini qayd etadi [5].

A.Yu. Zamleliy barqaror investitsiyalarni barqaror rivojlanish va foydani maksimal darajada oshirish tamoyillarining muvozanatiga asoslangan investitsiya jarayoni sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuv qaror qabul qilishda nafaqat moliyaviy, balki ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv omillarini ham hisobga olish orqali uzoq muddatli istiqbolda risklarni kamaytirish, samaradorlikni oshirish va salbiy tashqi ta'sirlarni minimallashtirishga xizmat qiladi [6].

Keltirilgan ta'riflar barqaror investitsiyalar masalasi xorijiy va mahalliy ilmiy hamjamiyatda dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Barqaror va mas'uliyatli investitsiyalarning asosiy ustunligi shundaki, ular moliyaviy natijalarga yo'naltirilgan holda, moliyaviy bo'lmagan risklarni oldindan hisobga olish orqali uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv omillarini integratsiyalash investitsiya loyihalarining uzoq muddatli moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu investitsiya yondashuvlari, asosan, strategik va uzoq muddatli rejalashtirishga asoslanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sifat va nazariy-tahliliy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi barqaror investitsiyalar va ESG mezonlarining iqtisodiyotdagi o'rni hamda ularning investitsiya qarorlariga ta'sirini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, taqqoslama va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Xususan, barqaror investitsiyalar, ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalar (SRI) va ta'sir investitsiyalari bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahlil qilindi. ESG (Environmental, Social, Governance) omillarining investitsiya samaradorligi va risklarni boshqarishdagi roli konseptual jihatdan baholandi.

Shuningdek, institutsional hujjatlar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari asosida barqaror moliya bozorlarining rivojlanish tendensiyalari aniqlashtirildi. O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasiga oid ma'lumotlar umumlashtirilib, barqaror investitsiyalarni joriy etish imkoniyatlari va cheklovlari sifat tahlili asosida baholandi.

Tadqiqot natijalari induktiv yondashuv asosida xulosalandi va yosh investorlar uchun moslashtirilgan barqaror investitsiya strategiyasini shakllantirishda metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barqaror investitsiyalarning mohiyati investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayoniga ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) omillarini integratsiya qilishdan iborat. Samarali boshqaruv tizimi mavjud bo'lmagan sharoitda ekologik va ijtimoiy tashabbuslarning barqaror natijalarga erishishi murakkablashadi. Shu bois, rivojlangan boshqaruv mexanizmlariga ega kompaniyalar iqlim o'zgarishi kabi ekologik chaqiriqlar, shuningdek, iste'molchilar xulq-atvorining o'zgarishi, raqamlashtirish jarayonlari va tartibga solishdagi yangilanishlar bilan bog'liq ijtimoiy risk va imkoniyatlarni boshqarishning muhimligini chuqur anglaydi.

Investitsiyalar nafaqat moliyaviy daromad keltirishi, balki ijtimoiy farovonlikni yaxshilashga xizmat qilishi lozim degan umumiy g'oya doirasida "barqarorlikka investitsiya qilish" tushunchasi ostida birlashtiriladigan bir qator institutsional yondashuvlar shakllangan.

Birinchidan, barqaror investitsiyalar yoki ESG investitsiyalari ekologik tozalik, ijtimoiy mas'uliyat va samarali korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya qiluvchi kompaniyalarga kapital kiritishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuvda kompaniyalarni baholash maqsadida yirik tahliliy tashkilotlar tomonidan ESG reytinglari shakllantiriladi, bu esa investorlar uchun qaror qabul qilish jarayonini yanada shaffof va tizimli qiladi.


Ikkinchidan, ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalar (SRI) konsepsiyasi ESG yondashuviga yaqin bo'lsa-da, investitsiya jarayonida axloqiy mezonlarga alohida e'tibor qaratilishi bilan ajralib turadi. Ushbu yondashuv doirasida, masalan, sog'liqqa yoki jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan faoliyat turlariga investitsiya kiritmaslik tamoyili qo'llaniladi. Shu sababli, SRI yondashuvi ESG yondashuviga nisbatan yanada qat'iy mezonlarga asoslanadi.

Uchinchidan, barqarorlikka ta'sir qilish uchun investitsiya qilish (impact investing) investorlarning moliyaviy resurslarini atrof-muhit va jamiyatda ijobiy o'zgarishlarni rag'batlantiruvchi aniq maqsadlarga yo'naltirishni nazarda tutadi. Ushbu strategiyadan foydalanuvchi investorlar investitsiya jarayoniga ongli yondashib, kapitalni muayyan loyiha yoki xulq-atvor o'zgarishiga yo'naltiradilar. Ta'sir investitsiyalarining ikki asosiy turi ajratiladi: instrumental ta'sir investitsiyalari va yakuniy bosqich ta'sir investitsiyalari. Instrumental yondashuvda barqarorlik loyihalariga investitsiya kiritish orqali moliyaviy maqsadlarga erishish ustuvor hisoblanadi. Yakuniy bosqich yondashuvda esa barqarorlikka ta'sir ko'rsatish maqsadi moliyaviy daromad olish maqsadidan mustaqil va ustun ahamiyat kasb etadi.

Har ikkala yondashuvda ham moliyaviy va ijtimoiy natijalarga erishish mumkin bo'lsa-da, moliyaviy daromadning barqarorlikka ta'sir darajasi bilan to'liq bog'liq bo'lmasligi ehtimoli mavjud. Barqaror rivojlanishga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan strategiyalar uchun muhim institutsional asos sifatida Mas'uliyatli investitsiyalar tamoyillari (PRI) va Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturining moliyaviy tashabbuslari doirasidagi hamkorlik mexanizmlari xizmat qiladi.

Barqaror rivojlanishga investitsiyalarning asosiy manbalari bozor regulyatorlari tomonidan "barqaror" sifatida tasniflangan moliyaviy instrumentlar orqali shakllanadi. Bugungi kunda bunday instrumentlar qatoriga barqaror investitsiya fondlari, yashil va barqaror obligatsiyalar, shuningdek, davlat va davlatga aloqador mablag'larni jamlovchi fondlar hamda pensiya fondlari kiradi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi "kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga zarar yetkazmagan holda hozirgi avlod ehtiyojlarini qondiradigan rivojlanish" sifatida talqin etiladi. Ushbu konsepsiya uchta o'zaro bog'liq tarkibiy element — iqtisodiyot, jamiyat va tabiat — ga asoslanadi. Mazkur elementlarning muvozanati va o'zaro uyg'unligi, shuningdek, Yer sayyorasida cheksiz iqtisodiy o'sishning imkonsizligi hamda rivojlanishning obyektiv chegaralari mavjudligi haqidagi g'oya barqaror investitsiyalarning nazariy va amaliy asosini tashkil etadi (1-rasm).



1-rasm. Barqaror rivojlanish konsepsiyasining tarkibiy qismlari

Barqarorlik amaliyotlarini kundalik hayotga integratsiya qilish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, investorlarning 78 foizi shishani qayta ishlash, chiqindilarni saralash va mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotib olish kabi amaliyotlarni qo'llashlarini bildirgan, biroq atigi 20 foizi ushbu yondashuvlarni o'z investitsiya faoliyatida amalda tatbiq etgan. Muhim muammolarni hal etish va yanada barqaror "normal" muhitni shakllantirish yo'lidagi dastlabki qadamlar sayyoramizning ekologik chegaralarini chuqur anglash



hamda ularni samarali boshqarish zaruratini taqozo etadi. Bu jarayon jamiyat, sanoat va davlat institutlarining muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlarini talab qiladi.

Jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekistonda iqlim o'zgarishiga moslashish choralari amalga oshirish uchun 2060-yilga kelib 46,7 milliard AQSh dollaridan 59,8 milliard AQSh dollarigacha investitsiyalar talab etiladi. Markaziy Osiyo mintaqasi nisbatan zaif hudud bo'lib qolayotganligi suv xavfsizligini ta'minlash, emissiyalarni qisqartirish hamda uglerod neytralligiga erishish bo'yicha mintaqaviy darajada muvofiqlashtirilgan choralarni ayniqsa dolzarb etadi. Ushbu yo'nalishda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillari sifatida iqlim moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, yashil investitsiyalarni faol jalb etish va global moliyaviy mexanizmlardan samarali foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi [7].

So'nggi yillarda tobora ko'proq investorlar investitsiya loyihalarini baholashda moliyaviy, ijtimoiy va ekologik mezonlarni uyg'unlashtiruvchi uch tomonlama yondashuv qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqarmasligiga ishonch hosil qilmoqda. Halol va mas'uliyatli investitsiya qilish potensial daromadlarga putur yetkazmaydi. Shaxsiy qadriyatlar va axloqiy tamoyillarga mos investitsiya qarorlari, aksincha, uzoq muddatli istiqbolda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashi mumkin. Bir qator tahlilchilarning fikricha, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal etishga ustuvor ahamiyat beruvchi kompaniyalar uzoq muddatda yuqori raqobatbardoshlikka erishadi va bu ularning investitsion jozibadorligini oshiradi.

Shu tariqa, keltirilgan ko'rsatkichlar rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy barqaror investitsiyalarning o'sish tendensiyalarini bevosita va bilvosita tavsiflaydi. Inqirozlar va an'anaviy rivojlanish paradigmalari qayta ko'rib chiqish sharoitida ijtimoiy barqaror investitsiyalar global iqtisodiyotning "sog'lom" rivojlanishini ta'minlovchi muhim vositalardan biriga aylanmoqda. Oltinchi texnologik paradigmaga o'tish jarayonida miqdoriy emas, balki sifat jihatidan barqaror iqtisodiy o'sish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalarni yuqori sifatli iqtisodiy o'sish mexanizmi sifatida keng qamrovli va tizimli ravishda talqin etish zarur.

Mazkur tadqiqot natijalariga tayanib, yosh investorlar uchun moslashtirilgan barqaror investitsiya strategiyasi taklif etiladi. Ushbu strategiya yosh investorlarning barqarorlikka oid qadriyatlari bilan ularning real investitsiya xatti-harakatlari o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirishga qaratilgan bo'lib, uchta asosiy ustunga tayangan holda ishlab chiqilgan: ta'lim, kirish imkoniyati va rag'batlantirish.

Birinchidan, ta'lim va xabardorlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy savodxonlik dasturlarini barqaror moliya tamoyillariga alohida e'tibor qaratgan holda kengaytirish zarur. Bunday dasturlar yosh auditoriyani samarali jalb etish maqsadida interaktiv seminarlar, onlayn kurslar va o'yinlashtirilgan o'quv vositalarini o'z ichiga olishi lozim.

Ikkinchidan, investitsiya mahsulotlarining barqarorlik ko'rsatkichlari bo'yicha shaffoflikni oshirish talab etiladi. ESG ko'rsatkichlari yuzasidan aniq, taqqoslanadigan va standartlashtirilgan ma'lumotlarning taqdim etilishi investorlarning ongli qarorlar qabul qilishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, barqaror investitsiya imkoniyatlaridan foydalanishni kengaytirish zarur. ESG talablariga mos moliyaviy mahsulotlarni taklif etuvchi, arzon va foydalanuvchilar uchun qulay platformalarning mavjudligini oshirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu platformalar investorlar uchun moliyaviy daromad va atrof-muhitga ta'sir o'rtasidagi muqobilashtirish holda, barqarorlik maqsadlariga mos portfollarni shakllantirish imkonini berishi lozim.

Shuningdek, yosh investorlar uchun kichik hajmdagi mablag'lardan boshlash va barqaror investitsiyalarni bosqichma-bosqich kengaytirish imkonini beruvchi mikroinvestitsiya mexanizmlarini rivojlantirish maqsadida moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish muhimdir. Bunda rag'batlantirish va tartibga solish choralari qo'llab-quvvatlash muhim rol o'ynaydi. Xususan, sertifikatlangan barqaror fondlarga investitsiya kiritishni rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari va subsidiyalar kabi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan mexanizmlarni joriy etish samarali natijalar berishi mumkin.

Taklif etilayotgan strategiya bilimlar yetishmasligi, moliyaviy muqobilashtirishni qabul qilishdagi qiyinchiliklar hamda jozibador ESG investitsiya imkoniyatlarining cheklanganligi kabi asosiy to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan. Ta'lim, kirish imkoniyati va rag'batlantirishga ustuvor e'tibor qaratish orqali yosh investorlar o'z moliyaviy qarorlarini axloqiy qadriyatlari bilan yanada uyg'unlashtirishga hamda barqaror moliyaviy ekotizimni rivojlantirishga munosib hissa qo'shishlari mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, barqaror rivojlanishga investitsiya kiritish global investitsiya jarayonlarida ustuvor tendensiyaga aylanib bormoqda hamda u xalqaro kelishuvlar, shuningdek, natijalarni monitoring qilish va baholashning puxta shakllangan mexanizmlari bilan qo'llab-quvvatlanmoqda. Barqaror investitsiya fondlari va moliya bozorlarida taqdim etilgan boshqa barqaror moliyaviy aktivlar umumiy bozor kon'yunkturasidagi qisqarish sharoitida ham barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Shu jihatdan, barqaror investitsiyalarga



yo'naltirilayotgan kapital oqimlarining ortib borishi ijobiy holat sifatida baholanadi. Venchur kapital investorlarining ushbu yo'nalishdagi ustunliklardan samarali foydalanishi va barqaror investitsiyalarning uzluksiz o'sishini qo'llab-quvvatlashi dualistik, ya'ni davlat ko'magi va shartnomaviy yondashuvga asoslangan strategiyalarni jadallashtirish imkonini beradi.

Dunyo miqyosida ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotida tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan barqaror investitsiyalar barqaror moliyaviy rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. O'zbekistonda barqaror investitsiya bozori shakllanish bosqichida bo'lib, ushbu yo'nalishda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish hamda bozor infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha izchil choralar ko'rilmogda. Hozirgi vaqtda investitsiya faoliyati asosan "yashil" sektor doirasida kengayib borayotgan bo'lib, barqaror investitsiyalar uchun moliyaviy resurslar, asosan, davlat va bank sektorlarida shakllantirilmoqda.

Shu bilan birga, kompaniyalar faoliyati bo'yicha ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruvga oid axborotlarning cheklanganligi barqaror investitsiya bozorining rivojlanishini sekinlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu holat barqaror investitsiya institutlari va moliyaviy instrumentlarini yanada rivojlantirish, shuningdek, axborot shaffofligini oshirish zaruratini taqozo etadi. Biznes faoliyatida ochiqlikni kuchaytirish, barqaror investitsiya vositalarining keng doiradagi investorlar uchun qulayligini ta'minlash va ularga bo'lgan talabni oshirish maqsadida xalqaro ilg'or tajribalarni joriy etish hamda ushbu sohada muvofiq davlat siyosatini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кабир Л. С. Социально ответственное инвестирование: тренд или временное явление? // *Экономика. Налоги. Право*. – 2017. – № 4. – С. 35–41.
2. Львова Н. А. Ответственные инвестиции: теория, практика, перспективы // *Экономика и экологический менеджмент*. – 2019. – № 3. – С. 56–67.
3. Канаев А. В., Канаева О. А. Инициативы бизнес-сообщества в области устойчивого развития и устойчивых финансов // *Синергия*. – 2018. – № 5. – С. 7–24.
4. Бауэ Б. Инвестирование для устойчивого развития [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.rus-tat.ru/stat/130POM2008_180-210_Baue.pdf
5. Отчёт «Устойчивое развитие» / UBS Financial Services Inc. (UBS FS), UBS AG // *CIO WM Research*. – Zurich: UBS AG, CH-8098.
6. Замлелый А. Ю. Финансирование инвестиций с учётом нефинансовых факторов // *Современные проблемы науки и образования*. – 2013. – № 2. – С. 5.
7. Инициативы Узбекистана в поддержку целей устойчивого развития [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://review.uz/post/iniciativ-uzbekistana-v-podderjku-celey-ustoychivogo-razvitiya>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100